

BUXORO VILOYATI TUPROQLARI VA ULARNING HOLATI

Alimov Muhammad Mo`min o`g`li

Buxoro davlat universiteti II bosqich magistranti

e-mail: muhammadzubayr10@gmail.com

Zayniddinova Malika Dilmurod qizi

Buxoro davlat universiteti II bosqich magistranti

e-mail: malikazayniddinova0812@gmail.com

Anotatsiya

Ushbu maqolada Buxoro vohasida tarqalgan tuproq tiplari, ularning mexanik tarkibi, azot, fosfor, kaliy (NPK) bilan ta`minlanish darajasi haqidagi nazariy ma`lumotlar berilgan. Shuningdek, vohaning tuproqlaridagi sho`rlanish miqdori tumanlar kesimida kiritilgan. Sho`rlanish darajasi bo`yicha 2010-2021 yil holat taqqoslangan.

Kalit so`zlar: voha, tuproq tipi, mexanik tarkib, taminlanish daraja, sho`rlanish.

Annotation

This article provides theoretical information on the types of soils in the Bukhara oasis, their mechanical composition, the level of nitrogen, phosphorus, potassium. Also, the amount of salinity in the soils of the oasis is included in the sections of the districts. The level of salinity in 2010-2021 is compared.

Keywords: oasis; soil type; mechanical composition; degree of supply; salinity.

Kirish. Buxoro vohasi O`rta Osiyodagi eng qadimgi va yirik dehqonchilik maskanlaridan biri. Zarafshon daryosining quyi qismida joylashgan. Shimoli sharqda Hazora yo`lagi orqali Navoiy-Konimex vohasiga, janubi g`arbda esa Jondor yo`lagi orqali Qorako`l vohasiga tutashgan. Umumiy uzunligi 80 km, kengligi 50 km bo`lib cho`l mintaqasida joylashgan. Buxoro vohasining dastlabki relyefi inson faoliyati natijasida jiddiy o`zgargan. Daryo terrasalari ekinzorga aylantirilgan. Buxoro vohasida paxtachilik, g`allachilik, bog`dorchilik, mevachilik, polizchilik, sabzavotchilik, xonaki chorvachilik bilan shug`ullaniladi.

Asosiy qism. Buxoro viloyatining sug`oriladigan zonasi O`rta Osiyo tuproq-iqlimi subtropik issiq cho`l zonasiga kiradi. Buxoro viloyati bo`yicha sug`oriladigan avtomorf, o`tuvchi va cho`l zonasining gidromorf tuproqlariga ajraladi, ular turli genezis va yoshdagi yotqiziqlardan tarkib topgan.

Sug'oriladigan sur-qo'ng'ir tuproqlar: mexanik tarkibiga ko'ra qumloq, yengil va o'rta qumoq, gumus miqdori 0,6-0,9% tashkil etadi. Qadimdan sug'oriladigan tuproqlarda 1,2 dan 1,8% gacha bo'lgan. Umumiy fosfor 0,09-0,11%, kaliy 1,4-2,0% gacha o'zgaradi. Karbonat miqdori 3-6% tashkiletadi. Bu tuproqlar tabiiy sharoitda ko'pincha yuqori qatlamlari sho'rlanmagan, quyi qatlamlari sho'rxokdan iborat. Sur-qo'ng'ir tuproqlarning haydalma qatlami turli darajada sho'rlangan (0,3-0,9%).

Qumli-cho'l tuproqlar: gumus miqdori 0,5%, umumiy azot 0,04-0,05%, umumiy fosfor 0,14-0,15%. Sizot suvlari 5 metrdan pastda joylashgan. Bu tuproqlar kuchsiz va o'rtacha sho'rlangan.

Sug'oriladigan taqir tuproqlar: mexanik tarkibiga ko'ra o'rta va yengil qumoqli, gumus miqdori 0,6-0,8%, azot 0,05-0,07% ni tashkil etadi. Bu tuproqlar o'rtacha darajada sho'rlangan. Sizot suvlarining sathi 2-3 metrgacha ko'tarilgan.

Sug'oriladigan taqirli-o'tloqi tuproqlar: mexanik tarkibiga ko'ra yengil, o'rta va og'ir qumoqli, 0,5-1,0 metrdan shag'al qatlamlar joylashgan. Tuproqning gumus miqdori 0,7-0,8%, umumiy azot 0,06-0,07% tashkil etadi. Tuproqlar kuchsiz va o'rtacha sho'rlangan bo'lib, tuproqlar tarkibida gumus miqdori 0,5-0,8% ni, azot 0,04-0,8% fosfor esa 0,08-0,14% ni tashkil etadi. (asosan Buxoro, Peshku, Romitan, G'ijduvon, Qorovulbozor tumanlari).

Sug'oriladigan o'tloqi-taqir tuproqlar: mexanik tarkibiga ko'ra o'rta va yengil qumoqli. Tuproqlarda gumus miqdori 0,5-1,1%, umumiy azot 0,04-0,12% mavjud. Ular kuchsiz sho'rlangan. Sho'rlanish tipi sul'fatli, ba'zi bir joylarda xlorid-sul'fatli tuproqlar uchraydi. Viloyatning sug'oriladigan yerlarini 74,7% o'tloqi allyuvial tuproqlaridan iborat.

Sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlar: mexanik tarkibiga ko'ra o'rta va og'ir qumoqli, ba'zi joylarda yengil qumoqli va qumloqlar uchraydi. Tuproqlar kuchsiz sho'rlangan. Ushbu tuproq turlari viloyatning Vobkent, Buxoro, Peshku, Qorako'l, Olot tumanlarida keng tarqalgan. Bu tuproqlar qadimdan sug'oriladigan, madaniylashgan unumdor tuproqlar bo'lib, haydalma qatlam tarkibidagi gumus miqdori 0,86-1,6% ni, umumiy azot 0,06-0,12% ni, umumiy fosfor 0,11-0,18% ni tashkil qiladi.

Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar: gumus miqdori 0,5-0,7%, umumiy azot 0,08-0,12% ni tashkil etadi. Botqoq-o'tloqi tuproqlar: mexanik tarkibiga ko'ra og'ir va o'rta qumoqli, gumus miqdori 3% atrofida, umumiy fosfor va kaliy bilan kam ta'minlangan. Bu tuproqlarda sizot suvlari 0,5-1 m bo'lib, asosan kuchsiz va o'rtacha darajada sho'rlangan.

"O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri" davlat qo'mitasi tomonidan 2010-yilda nashr qilingan "O'zbekiston Respublikasi tuproq qoplamlari atlas" ma'lumotiga ko'ra Buxoro vohasida tarqalgan tuproqlarning mexanik tarkibiga ko'ra quyidagicha tavsiflangan.

Sug'oriladigan tuproqlarning mexanik tarkibiga ko'ra tavsifi (%)

| No | Tumanlar | Og'ir qumoqli va loyli | O'rta qumoqli | Yengil qumoqli | Qumoqli-qumli |
|--------------|--------------|------------------------|---------------|----------------|---------------|
| 1 | Buxoro | 0.7 | 75.3 | 4.3 | 19.7 |
| 2 | Vobkent | 20.2 | 70 | 5.7 | 4.1 |
| 3 | Jondor | 10.6 | 24.6 | 28.9 | 35.9 |
| 4 | Kogon | 18.3 | 36.9 | 28.9 | 15.9 |
| 5 | Olot | 2.4 | 48.2 | 12.8 | 36.6 |
| 6 | Peshku | 6.4 | 63.6 | 23 | 7 |
| 7 | Romitan | - | 38.7 | 3.5 | 57.8 |
| 8 | Shofirkon | 2.3 | 25.8 | 45.5 | 26.4 |
| 9 | Qorako'l | 4.5 | 49.4 | 25.1 | 21 |
| 10 | Qorovulbozor | 35.1 | 25.6 | 25.6 | 13.7 |
| 11 | G'ijduvon | 9.6 | 52.6 | 20.3 | 17.5 |
| Jami: | | 10 | 46.5 | 20.3 | 23.2 |

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, Buxoro vohasida tarqalgan tuproqlar mexanik tarkibining ko'p qismini o'rta qumoqli tuproqlar tashkil etib, asosan, Buxoro, Vobkent Peshku tumanlari tuproqlariga xosdir. Og'ir qumoqli va loyli tuproqlar esa kam tarqalgan bo'lib, bunday mexanik tarkibli tuproqlar Qorovulbozor hududida nisbatan ko'proq tarqalganligini ko'rish mumkin.

Buxoro vohasi sug'oriladigan tuproqlarining sho'rlanish darajasini tahlil qiladigan bo'lsak, hududda asosan kuchsiz, o'rtacha, kuchli va juda kuchli sho'rlangan tuproqlar uchraydi. Asosan kuchsiz va o'rtacha sho'rlangan tuproqlar katta maydonlarda tarqalgan.

Sug'oriladigan tuproqlarning sho'rlanish darajasi bo'yicha tavsifi.

("O'zbekiston Respublikasi tuproq qoplamlari atlas" 2010-yil va Tuproq sifat tahlili sho'ba koronasi tuproq tahlil natijalari 2021-yil.)

| № | Tumanlar | Kuchsiz | | 2010-yil holati (%) | O'rtacha | | 2010-yil holati (%) | Kuchli | | 2010-yil holati (%) | Juda kuchli | | 2010-yil holati (%) |
|--------------|-----------|-----------------|-------------|---------------------|-----------------|-------------|---------------------|-----------------|-------------|---------------------|-----------------|----------|---------------------|
| | | 2021-yil holati | | | 2021-yil holati | | | 2021-yil holati | | | 2021-yil holati | | |
| | | ming ga | % | | ming ga | % | | ming ga | % | | ming ga | % | |
| 1 | Buxoro | 16 | 70 | 47.7 | 5 | 21.7 | 45.3 | 1.1 | 5 | 7.3 | 0.6 | 2.6 | - |
| 2 | Vobkent | 11.3 | 56 | 71.5 | 2.7 | 13.3 | 19.2 | 0.4 | 2 | 7.2 | 0.3 | 1.4 | 2.1 |
| 3 | Jondor | 10.6 | 37.7 | 32.9 | 10.7 | 38.3 | 35.7 | 5.2 | 18.7 | 11.6 | 1.4 | 5.1 | 19.8 |
| 4 | Kogon | 7.7 | 45.7 | 34.7 | 2.6 | 15.6 | 45.1 | 0.8 | 5 | 13.6 | 0.65 | 3.9 | 6.6 |
| 5 | Olot | 4.5 | 26 | 63.8 | 5 | 29.1 | 31.2 | 2 | 11.8 | 4.5 | 1.7 | 9.9 | 0.5 |
| 6 | Peshku | 8.3 | 44.3 | 32.6 | 3.6 | 19.4 | 48.4 | 1.2 | 6.5 | 19 | 1 | 5.4 | - |
| 7 | Romitan | 13.8 | 60.3 | 71.1 | 7.1 | 31 | 20.8 | 1.4 | 6.1 | 7.6 | 0.6 | 2.6 | 0.5 |
| 8 | Shofirkon | 18 | 78.2 | 59 | 2 | 8.9 | 30.3 | 0.6 | 2.5 | 3.3 | 0.1 | 0.5 | 7.4 |
| 9 | Qorako'l | 11.3 | 58.2 | 71.2 | 5.7 | 29.4 | 25.2 | 1.4 | 7.1 | 2.1 | 0.6 | 3.3 | 1.5 |
| 10 | Q-bozor | 7.6 | 50 | 64 | 2.2 | 14.2 | 21.8 | 0.3 | 2.2 | 12.6 | 1.2 | 7.7 | 1.6 |
| 11 | G'ijduvon | 10 | 50.1 | 79 | 2.5 | 12.4 | 11.5 | 0.6 | 2.9 | 2.5 | 2.65 | 1.3 | 7 |
| Jami: | | 119 | 52.4 | 57 | 49.2 | 21.2 | 30.4 | 15.2 | 6.36 | 8.3 | 8.5 | 4 | 4.3 |

Buxoro viloyatining sug'oriladigan tuproqlarda sho'rlanish darajalarini o'rganib quyidagilarni aytish mumkin: tuproqning sho'rlanish jarayonini ko'p yillar davomida o'zgarishini kuzatish natijasida ma'lum bo'ldiki, viloyatning Vobkent, Jondor, Kogon, Shofirkon, G'ijduvon tumanlarining sug'oriladigan yerlarida o'rta va kuchli sho'rlanish toifasidan juda kuchli sho'rlanish toifasiga o'zgargan. Bu jarayon Jondor va G'ijduvon tumanlarida avj olgan. Buxoro, Peshku, Qorovulbozor tumanlarida juda kuchli sho'rlanish toifasi kamayib, o'rta va kuchli sho'rlangan maydonlarga aylangan. Romitan, Olot va Qorako'l tumanlaridagi sug'oriladigan yerlar kuchli va juda kuchli sho'rlanish toifasidan kuchsiz sho'rlanish holatiga o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa boshqa tumanlarga nisbatan ijobiy holat deb baholasak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda Buxoro viloyatida sug'oriladigan yerlarning tuz muvozanati salbiy muvozanat bo'lib, uning kirim qismi chiqim qismiga nisbatan kamligi aniqlandi. Viloyatning asosiy sug'oriladigan yerlarida mavsumiy tuz to'planish jarayoni davom etmoqda. Yuqoridagi

ma`lumotlarni tahlil qilgan holda har bir fermer va tomorqa yer egalari eng avvalo tuproqlarning holatidan kelib chiqqan holda ekiladigan ekin turini tanlashi, agrotexnik tadbirlarni olib borishi, sug`orish me`yori va muddatlarini belgilashi, mineral va organik o`g`it kiritishi kerak bo`ladi. Mineral o`g`itlarni tanlashda tuproq qaysi tipda sho`rlanishga uchraganligini hisobga olish juda muhim.